

TURLI EKISH SXEMALARI HAMDA QATOR ORALARIGA ISHLOV BERISHDA SOYA NAVLARINI TUPROQDA QOLDIRGAN ILDIZ, ANG'IZ QOLDIQLARI

Xasanov Sardor Faxritdinovich
Namozov Fazliddin Bahromovich
Toshkent davlat agrar universiteti
sardorkhasanov65@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10825100>

Annotatsiya. Soyaning Nafis hamda Seleкта-201 navlarini 60x8x2 va 70x8x2 sxemalarida qator oralig'igiga 16-18 sm hamda 18-20 sm chuqurlikga ishlov berib parvarishlanganida eng yuqori angiz va ildiz qoldiqlari qolgan variatlar 4-, 7-,10-, 13-variantlarda kuzatilgan.

Kalit so'zlar: Soya, Nafis, Seleкта-201, angiz va ildiz qoldiqlari, korelyatsiya. qator orasiga ishlov berish, 60x8x2 ekish sxemasi, 70x8x2 ekish sxemasi.

Kirish. Respublikamizda takroriy ekin sifatida soya o'simligini ekishdan maqsadlardan biri tuproqning xaydov qatlamida gumus miqdorini qisman oshirishda hizmat qilishidir. Tabiiyki har qanday o'simlik usish va rivojlanishida tuproqning unumdor qatlamidan makro va mikroelementlarni olib chiqib ketadi. Tuproqning unumdor qatlamida elementlarni o'sish davrida erkin azotni tuplay oladigan yagona bir o'simlikdan biri bu soya o'simligidir [1; 162-164b.].

K.Ashurov, G.Urunbayeva, K.Azizovlarning [2; 88-b] tadqiqotlarida soya o'simligi bir gektar maydonda jami 42,4 s/ga qoldiqlar qoldirgan, shundan o'rtacha 10,4 s/ga ang'iz, 32,0 s/ga ildizga to'g'ri kelgan. Har gektar yerda 45,7 kg azot, 16,7 kg fosfor va 30,5 kg kaliy qoldirganligi aniqlangan.

N.Xalilov, M.Lukov, A.Isroilov, Z.Artikovlarning [3; 13-b.] tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, takroriy ekin sifatida ekilgan soya o'simligi suv va shamol eroziyasining zararli ta'sirini kamaytirib, tuproqni organik moddalar bilan boyitadi va uning ikkilamchi sho'rlanishni kamaytirishga sabab bo'ladi. Soya bug'doy hosilidan bo'shagan ang'izga ekilganda dalaning mikro-iqlimi, fitosanitariya holati, tuproqdagi mikrobiologik jarayonlar yaxshilanadi. Soyadan bo'shagan yerlarga boshqa ekinliklar ekilganida hosildorligi 20-30 foizga ortishi kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotimiz davomida 2020 yilda soya o'simligini yigishtirib olinganidan keyn nazorat 1-variant O'zbek-2 navida 60x8x2 sxema parvarishlanganida jami angiz va ildiz qoldig'i 1,44 t/ga bo'lsa, 70x8x2 sxemada 2 variantda jami 1,46 t/ga tashkil etdi. 60x8x2 sxemada o'rug'likni ekib parvarishlanganida va qator orasiga 12-14 sm : 16-18sm : 18-20sm chuqurlikg ishlov berish natijasida jami angiz va ildiz qoldiqlari Nafis navida 3 : 4 : 5 variantlarda 1,52 : 1,61 : 1,54 t/gadan, Seleкта-201 navida 6 : 7 : 8 variantlarda 1,52 : 1,59 : 1,52 t/gadan, 70x8x2 sxemada ekib qator orasiga 14-16 sm : 18-20sm : 20-22sm chuqurlikg ishlov berish natijasida Nafis navida 9 : 10 : 11 variantlarda 1,56 : 1,62 : 1,56 t/gadan, Seleкта-201 navida 12: 13 : 14 variantlarda 1,51 : 1,60 : 1,55 t/gadan bo'lganligi aniqlandi.

Soyaning Nafis navida eng ko'p angiz va ildiz qoldig'i 60x8x2 sxemasida qator orasiga 16-18sm chuqurlikga ishlov berilgan 4-variantda 1,61 t/ga, 70x8x2 sxemasida qator orasiga 18-20sm chuqurlikga ishlov berilgan 10-variantda 1,62 t/ga bo'lganligi kuzatildi.


Soyaning Seleкта-201navida esa eng ko'p angiz va ildiz qoldig'i 60x8x2 sxemasida qator orasiga 16-18sm chuqurlikga ishlov berilgan 7-variantda 1,59 t/ga, 70x8x2 sxemasida qator orasiga 18-20sm chuqurlikga ishlov berilgan 7-variantda 1,60 t/ga bo'lganligi kuzatildi.

Tuproqdan angiz hamda ildiz qoldiqlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz shuni qo'rsatiki soyaning Nafis navida Seleкта-201 naviga nisbatan 0,02 t/ga oshiq qoldiq miqdori qolishi kuzatildi. Ma'lumot 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli ekish sxemalari hamda qator oralariga ishlov berishda soya navlarini tuproqda qoldirgan ildiz, ang'iz qoldiqlari (2020y)

№ var	Takroriy ekilgan soya navlari	Ekish sxemasi	Qator orasiga ishlov berish chuqurligi, sm	Qator orasiga chuqur ishlov berish chuqurligi, sm	Ang'iz qoldig'i t/ga	Ildiz qoldig'i t/ga	Jami ang'iz va ildiz qoldiqlari, t/ga
1	O'zbek-2 (nazorat)	60x8x2	12-14 sm	-	0,15	1,29	1,44
2	O'zbek-2 (nazorat)	70x8x2	14-16 sm	-	0,16	1,30	1,46
3	Nafis	60x8x2	12-14 sm	12-14 sm	0,19	1,33	1,52
4				16-18 sm	0,22	1,39	1,61
5				18-20 sm	0,20	1,34	1,54
6	Seleкта-201	60x8x2	12-14 sm	12-14 sm	0,20	1,32	1,52
7				16-18 sm	0,22	1,37	1,59
8				18-20 sm	0,20	1,32	1,52
9	Nafis	70x8x2	14-16 sm	14-16 sm	0,21	1,35	1,56
10				18-20 sm	0,24	1,38	1,62
11				20-22 sm	0,21	1,35	1,56
12	Seleкта-201	70x8x2	14-16 sm	14-16 sm	0,20	1,31	1,51
13				18-20 sm	0,23	1,37	1,60
14				20-22 sm	0,21	1,34	1,55



1-rasm. Soya navlarining ang'iz qoldig'i va ildiz qoldig'i o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik. Yuqorida soya navlarining ang'iz qoldig'i va ildiz qoldig'i bog'liqlik tahlil qilinib, unga ko'ra har bir nav, ekish uchullari va qator oralariga chuqurlikga ishlov berilgan variantlarda ijobiy xususiyatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi, ularning regresiya tenglamasi ($y=a+bx$) ga bo'ysunishi aniqlandi. Shuningdek, bu navlar orasidagi korrelyatsion koeffitsiyenti kuchli to'g'ri chiziqli xarakterga ega bo'lib, $r=0,88$ ga tengligi aniqlandi (1-rasmga qarang). Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak, soyaning Nafis navini 60x8x2 sxemada ekib qator orasiga 16-18sm chuqurlikga ishlov berib parvarish qilinsa va 70x8x2 sxemada ekib qator orasiga 18-20sm chuqurlikga ishlov berib parvarish olib borilsa angiz va ildiz qoldiqlar miqdori ko'proq hamda o'tmishdosh o'simlik uchun ozuqa sifati samarali bo'lishi mumkin.

References:

1. Хасанов С.Ф., Намозов Ф.Б. "Турли экиш усулларда экилган сояни қатор ораларига ишлов беришда тупроқнинг ҳажм массасининг ўзгариши" O'zbekiston agrar fani xabarnomasi № 6 (12/3) 2023. 162-164б.
2. Ашуров К., Урунбаева Г., К.Азизов. "Тупроқ унумдорлигини сақлашда такрорий экинларнинг ўрни" AGRO ILM 5-SON, Тошкент 2020 й. 88-б.
3. Халилов Н, Луков М, Исроилов А, Артиков З. Соянинг янги навлари агротехникаси. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали №6. Тошкент-2017 й. 13 б.